

«Yangi O‘zbekiston-taraqqiyotning yangi bosqichi»da
ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni o‘qitishga zamonaviy
yondashuvlar va innovatsiyalardan foydalanish

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari



	MA`NAVIY SARCHASHMA	
63	Sheroz To‘raevich Temirov BuxMTI katta o‘qituvchisi MIRSIDDIQ XON HASHMAT TAZKIRALARINING AHAMIYATI	307
64	Saodat Qaxxorova Buxoro muhandislik-texnologiya instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi AMIR XUSRAV DEHLAVIY MA`NAVIY MEROSINING FALSAFIY TAHLILI	311
65	Doniyor Oripovich G‘afurov Buxoro muhandislik-texnologiya instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrası dotsenti, falsafa fanlari doktori (PhD). MARKAZIY OSIYO ILMIY MADANIY MEROSIDA OILALARDA MEHRIBONLIK VA BAG‘RIKENGLIK G‘OYALARINING TALQINI	315
66	Maxbuba Baxshilloevna Sharipova Buxoro davlat universiteti, Maktabgacha ta’lim kafedrası o‘qituvchisi, PhD O‘ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGIDA ALPOMISHSHUNOSLIK TA’LIMOTI	320
67	Dildora Junaytovna Jumaeva Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tadqiqotchisi JAMIYATDAGI MA`NAVIY MEROSNING TA’LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI O‘RNI	325
68	Guljaxon Raimovna Kazimova Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tadqiqotchisi AMIR XUSRAV DEHLAVIY MA`NAVIY MEROSIDA INSON MASALASI	330
69	Dildora Junaytovna Jumaeva Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tadqiqotchisi JAMIYATDAGI MA`NAVIY-RUHIY MUHITNI MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR ASOSIDA RIVOJLANISH MUAMMOLARI	334

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz asari. – T.: O‘zbekiston, 2017.
2. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oilani boshqarish tartibi. – T.: Ma’naviyat, 1998.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud ahloq.
4. Husayn Voiz Koshifiy. Axloqi Muxsiniy. – T.: Ma’naviyat, 19

O‘ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGIDA ALPOMISHSHUNOSLIK**TA’LIMOTI****Maxbuba Baxshilloevna Sharipova,****Buxoro davlat universiteti,****Maktabgacha ta’lim kafedrası o’qituvchisi, PhD**

Annotatsiya: ushbu maqolada O‘zbek folklorshunosligida “Alpomish” dostoni bo‘yicha bajarilgan tadqiqotlarning o‘rganilish tadrijiyligi, badiiy strukturasi, motivlar va obrazlar xususiyati, doston poetikasi masalalarini ilmiy-nazariy tadqiqi ifoda etilgan.

Kalit so‘zlar: xalq dostonlari, folklor, folklorshunoslik, ishq-muhabbat, milliy madaniyat, marosim, urf-odat, marosim va doston munosabatlari.

Аннотация: в данной статье представлено научно-теоретическое исследование изучения эпоса «Алпомиш» в узбекском фолклористике, художественной структуры, особенностей мотивов и образов, поэтики эпоса.

Ключевые слова: народный эпос, фолклор, фолклористика, любовь, национальная культура, обряд, традиция, соотношение обряда и эпоса.

Abstarct: in this state, the scientific and theoretical investigation of the epic "Alpomish" is presented in the Uzbek folkloristic, divine structure, special motifs and images, poetic epic.

Key words: national epos, folklore, folkloristics, love, national culture, rite, tradition, sootnoshenie obryada i eposa.

O‘zbek folklorshunosligida “Alpomish” dostoni bo‘yicha bajarilgan tadqiqotlarni quyidagicha davrlashtirish mumkin:

1. XX asrning 1940-50-yillari. Bu vaqt urush davri bo‘lishiga qaramay, rus olimi V.M.Jirmunskiy bilan o‘zbek olimi H.T.Zarifovlar o‘zaro do‘stona hamkorlik

oʻrnatib, birgalikda “Oʻzbek xalq qahramonlik eposi” kitobini rus tilida yaratib, chop ettirishdi. Shu bilan oʻzbek alpomishshunosligining nazariy tamal toshi qoʻyildi. Undan soʻng Mansur Afzalov, Hodi Zarifovning dostonshunoslikka bagʻishlangan bir necha muhim ilmiy maqolalari eʻlon qilindi. [1]

2. XX asrning 1960-70-yillari. Bu yillarda eʻlon qilingan N.Shukurovning maqolasi bevosita “Alpomish” dostoni, T.Gʻoziboyevning maqolasi esa ushbu dostonning Namangan variantlari haqida ekani bilan eʻtiborni tortadi. [2] Bu davrga kelib, doston poetikasi masalalarini ilmiy-nazariy tadqiq etishga eʻtibor ortgani kuzatiladi. Jumladan, O.Sobirovning “Islom Nazar oʻgʻli” (1967), T.Gʻoziboyevning “Fozil Yoʻldosh oʻgʻli” (1968), Muhammadnodir Saidovning “Oʻzbek xalq dostonlarida badiiy mahorat” (1969), Hodi Zarifovning “Oʻzbek xalq dostonlarining tarixiy asoslari” (1976), Toʻra Mirzayevning “Alpomish” dostonining oʻzbek variantlari” (1968) hamda “Xalq baxshilarining epik repertuari” (1979), Muhamadali Qoʻshmoqovning “Chechanlikda soʻzda suvdayin oqib” (1978) kabi monografiya va ilmiy maqolalari oʻzbek eposshunosligi taraqqiyotida muhim oʻrin tutdi.

Hodi Zarifov, Muhammadnodir Saidov qatorida oʻzbek folklorshunosligiga “Alpomish” dostonining fidoyi tadqiqotchisi sifatida kirib kelgan Toʻra Mirzaev bu boradagi izlanishlarini sadoqat bilan davom ettirib, mavzuga butun ilmiy faoliyati davomida sodiq qoldi. [3] Olim oʻtgan asrning 50-yillari boshlaridagi kommunistik mafkura tazyiqi tufayli “Alpomish” dostoni “millatchilikni targʻib qiluvchi, xalqqa qarshi asar” deb qoralanganiga qaramay, uni har tomonlama oʻrganishdan, chuqur ilmiy tadqiq qilishdan choʻchimadi. Qaytaga yanada shijoat bilan ishga kirishib, dostonning 33 variantini qiyosiy tadqiq qildi va ularning ikki versiyada tarqalganligini aniqladi. Shu asosda olim u yoki bu dostonchilik maktabiga xos xususiyatlarni, ular repertuaridagi dostonlarning sujet qurilishidagi farqlar va boshqa gʻoyaviy-genetik jihatlarni ham ilmiy asoslab berdi. 1968 -yilda u shu sohadagi kuzatishlari va nazariy xulosalarini umumlashtiruvchi “Alpomish” dostonining oʻzbek variantlari” monografiyasini eʻlon qildi. [3] Olim “Alpomish” dostonining qirqqa yaqin variantlari variantlari yozib olinganini maʼlum qiladi.

Ular, asosan, hayotiy shart-sharoitlar natijasida yuzaga kelgan bo‘lib, 1922-yildan yozib olina boshlangan. “Alpomish” dostoni variantlari Fozil Yo‘ldosh o‘gli, Mahammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan, Berdi baxshi, Saidmurod Panoh o‘g‘li, Bo‘ri baxshi, Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li, Mardonaqul Avliyoqul o‘g‘li, Abdulla Nurali o‘g‘li, Umir baxshi, Haydar Boycha o‘g‘li, Rahmatulla Yusuf o‘g‘li, Nodir Rahim o‘g‘li kabi mashhur baxshilardan yozib olingan. Bular orasida badiiy jihatdan eng yuksagi va mukammali Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan yozib olingan variant hisoblanadi.

3. XX asrning 1980-90-yillari. Bu davrda e‘lon qilingan Muhamadali Qo‘shmoqovning “Baxshilar xazinasini” (1981), G‘alina Musinaning “O‘zbek xalq dostonlarida xotin-qizlar obrazlari” (1983) va “Turanning alp qizlari”, Malik Murodovning “Sarchashmadan tomchilar” (1986) nomli tadqiqotlarida “Alpomish” dostoniga munosabat bo‘rtib ko‘rinadi. Ularda doston ijrochilari, baxshichilik san’atining o‘ziga xos xususiyatlari, ustoz-shogird munosabatlari, ayrim yetakchi baxshilarning ijodi, badiiy mahorati, repertuarida “Alpomish” dostonining o‘rni, bu mashhur eposda xotin-qizlar obrazlarining estetik mohiyatini ochishga alohida e‘tibor qaratilgan.

Saodat Yo‘ldosheva “O‘zbek xalq qahramonlik eposi – “Alpomish”ning badiiyati” (1984) mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. [4]

4. XX asr oxiri va XIX asr boshlari yoki Istiqlol davri alpomishshunosligi.

I.Yormatov, M.Murodov, A.Ergashev, O.Madayev, J.Eshonqulov, N.Ochilov, N.Allamberganova tadqiqotlari bevosita “Alpomish” eposining kuylanishiga, baxshilar repertuaridagi o‘rniga, badiiy xususiyatlariga istiqloq baxsh etgan ijodiy erkinlik orqali yondashilgani bilan ayriacha ahamiyat kasb etadi.

Isomiddin Yormatov “O‘zbek xalq qahramonlik eposi poetikasi” (1994) mavzuida “Alpomish” dostoni yuzasidan doktorlik tadqiqotini amalga oshirdi. 2019-yilda N.G.Allamberganova “Alpomish” dostonining o‘zbek va qoraqalpoq versiyalari qiyosiy tipologiyasi”ni o‘rgandi. [5] Bu tadqiqotda muallif “Alpomish” dostonining o‘zbek va qoraqalpoq milliy versiyalari uchun umumiy va asosiy bo‘lgan motivlar:

- a) farzandsizlik va kutilgan epik qahramon dunyoga kelishi munosabati bilan o‘tkaziladigan to‘y;
- b) Barchin oilasining qalmoq yurtiga ketib qolishi, ayriliq;
- v) safar;
- g) sinov;
- d) dushman ustidan g‘alaba;
- e) to‘y motivlari ekanini alohida ta’kidlab o‘tgan. Ammo doston versiyalarining bu tadqiqotda o‘rganilgan variantlarida asosiy motivlar bir xil bo‘lsa-da, ularning bayoni milliylikka yo‘g‘rilganligi boisidan versiyalari o‘ziga xos xususiyat kasb etishi to‘g‘ri e’tirof qilingan.

Xulosa qilib aytganda, doston sujetini to‘liq anglash uchun o‘zbek xalq marosimlarini, urf-odat va an’analarini yaxshi bilish talab etiladi. Aks holda, doston mazmunini to‘liq anglash iloji bo‘lmaydi. Xalqimiz taqdiri, vatanimiz tarixida yuz bergan muhim voqea-hodisalar, ajdodlarimizning o‘z mustaqilligi, tinch va farovon hayot uchun kurashi haqida hikoya qilishi, o‘z elini qadrlash, go‘zal urf-odatlaru o‘lmas an’analarga ergashish to‘g‘risida hikoya qiluvchi bu doston yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda bugungi kunda ham muhim amaliy ahamiyat kasb etishi bilan e’tiborga loyiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Afzalov M. “Alpomish” dostonining variantlari haqida // Sharq yulduzi – 1956. – 7-son. – B.107–117; Afzalov M.I. Uzbekskaaya versiya eposa “Alpomish” // Ob epose “Alpomish”, Materialy po obsujdeniyu eposa “Alpomish”, otvetstvennyye redaktory V.I.Chicherov i X.T.Zarifov, – Tashkent: Izd-vo AN UzSSR, 1959. – S. 144-157; Zarifov X.T. Osnovnyye motivy eposa Alpomish // Ob epose “Alpomish”. – Tashkent: Fan, 1959. – S. 6–25; Hodi Zarifov. “Alpomish” eposining asosiy motivlari. “Alpomish” – O‘zbek xalq qahramonlik eposi. – T.: Fan, 1999. – B.45.

Shukurov N. “Alpomish” dostoni haqida. – “Sharq yulduzi”, 1956, 2-son; G‘oziboev T. “Alpomish” dostonining Namangan variantlari / O‘zbek tili va adabiyoti masalalari. Namangan Davlat pedagogika institutining ilmiy asarlari to‘plami. – T.: Fan, 1969. – B.3-16.

Safarov O. To‘ra Mirzaev. Ijodiy portret. – T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2006. – B.36.

Mirzaev T. “Alpomish” dostonining o‘zbek variantlari. – T.: Fan, 1966. – 172 b.

Yo‘ldosheva S. Poetika uzbekskogo geroicheskogo eposa «Алпамыш». Diss. kand. filol. nauk. – Tashkent, 1984.

Allamberganova N.G. “Alpomish” dostonining o‘zbek va qoraqalpoq versiyalari qiyosiy tipologiyasi: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2019. – 49 b. Alpomish. Doston. O‘zbek xalq qahramonlik eposi / Aytuvchi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li. Nashrga tayyorlovchilar H.Zarifov va T.Mirzaev. – T.: Sharq, 1998. – 400 b.

Putilov B. Epos i obryad // Folklor i etnografiya. – L.: Nauka, 1974. – S.76.

Eshonqul J. O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. – T.: Fan, 2011. – B.93-94

Eshonqul J. Epik tafakkur tadriji. – T.: Fan, 2006. – B.5.

Sarimsoqov B. O‘zbek folklori ocherklari. Uch tomlik. 1-tom. – T.: Fan, 1988. – B. 144-145.

“O‘zbek marosim folklorini o‘rganishning yangicha tamoyillari” mavzuidagi Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. – Navoiy, 2007. – 220 b.

O‘raeva D. O‘zbek motam marosimi folklori. – T.: Fan, 2004. – 120 b.

Uraeva, D. S., Sharipova, M. B., Zaripova, R. I., & Nizomova, s. s. (2020). the expression of the national traditions and beliefs in uzbek phraseological units. Theoretical & Applied Science, (6), 469-472.